XALQ DEPUTATLARI GULISTON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 27-iyun VII-13-74-9-130-K/25 Guliston shahar

Guliston shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to ‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida ishbilarmonlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-martdagi PQ-93-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini taminlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi** Nizomiga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sirdaryo viloyatida ishbilormanlik muhitini, infratuzilma va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 6-martdagi PQ-93-son qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2025-yil 17-apreldagi 20/1-781-son bilan tasdiqlangan “Nazorat-reja”sining ijrosini taminlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan **“Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi o‘g‘risida”gi** Nizomiga asosan Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan bajarilgan ishlarning yakuniy natijalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Guliston shahrining ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha shahar komissiyasining 2025-yil 11-iyundagi 1-15/114-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

3. Guliston shahriga chegaradosh tumanlardan **jami 3 ta** ***(3 ta qisman Ishonch MFY dan 247,97 ga Yangiavlod MFY dan 159,8 ga Qarapchi MFY dan 142,6 ga)*** mahalla fuqarolar yig‘inidan **550,37** ga yer uchastkasi Guliston shahri tarkibiga o‘tkazilsin.

4. Gulistontumanidan Guliston shahri tarkibiga o‘tkazilayotgan yer uchastkasining chegara chizig‘ining tavsifi **1-ilovaga,** kartografik chizmasi **2-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Boyovut tumanidan Guliston shahri tarkibiga o‘tkazilayotgan yer uchastkasining chegara chizig‘ining tavsifi **3-ilovaga,** kartografik chizmasi **4-ilovalarga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Guliston shahri bilan chegaradosh bo‘lgan Guliston, Boyovut va Mirzaobod tumanlari o‘rtasidagi ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi **5-ilovaga** hamda tayyorlangan kartografik chizmasi **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining doimiy komissiyalari hamda shahar hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi XODJIMANOV JAMOLIDDIN XUSNUDDINOVICH

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston tumanidan Guliston shahriga qo‘shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Guliston shahri va Guliston tumanining chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°32'13,846", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°47'09,501").*

A dan B gacha Guliston tumani yerlari bilan 1- 2 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 116 metr masofani o‘tib avtomobil yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1126 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'38,051", sharqiy uzunlik 68°47'24,997").*

B dan A gacha Guliston shahri yerlari bilan 2 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

2 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1874 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'24,363", sharqiy uzunlik 68°46'07,430").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 494 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'39,982", sharqiy uzunlik 68°46'02,903").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lidan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 551 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'36,001", sharqiy uzunlik 68°45'40,136").*

5 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 504 metr masofada zovurni kesib o‘tadi, so‘ng zovurning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 12 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 151 metr masofada zovurni kesib o‘tib, beton ariq bo‘yidagi 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'56,923", sharqiy uzunlik 68°45'35,775").*


6 – nuqtadan chegara chizig‘i beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 502 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning janub tomoni bilan umumiy yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 1774 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 1-

nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'13,846", sharqiy uzunlik 68°47'09,501").*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston tumanidan Guliston shahar tarkibiga qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'i

1 *Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Guliston shahriga qo‘shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig‘ining
T A V S I F I

Guliston shahri hamda Boyovut, Mirzaobod tumanlarining chegara chiziqlari kesishgan joy, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan boshlangich 1-nuqtaga tutashadi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°28'27,562", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°46'16,895").*

A dan B gachaGuliston shahri yerlari bilan 1 - 5 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

1-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 82 metr masofani o‘tib, keyin avtomobil yo‘lidan zovurga o‘tadi va janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 205 metr masofani o‘tib, keyin to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 211 metr, so‘ng janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 88 metr, so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 146 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 155 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 236 metr masofani o‘tib, so‘ngra to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 197 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'25,359", sharqiy uzoqlik 68°46'54,910").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 126 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 119 metr, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 182 metr, keyin yo‘lning janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 115 metr masofada avtomobil yo‘liga o‘tib, so‘ng avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 138 metr, so‘ngra yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 254 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'39,154", sharqiy uzoqlik 68°47'07,585").*

3 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tadi va qishloq ichki yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 440 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tadi va ariqqa tutashadi, so‘ng sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 812 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ngra janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 50 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi, keyin sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1284 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'45,899", sharqiy uzoqlik 68°48'37,058").*

4 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lidan zovurga o‘tadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 407 metr masofada qishloq ichki yo‘liga o‘tib, keyin qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1009 metr, so‘ng yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 401 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 498 metr masofada zovurga o‘tib, keyin janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 360 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 49 metr zovurni kesib o‘tib, Guliston shahri va Boyovut tumani chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'32,448", sharqiy uzoqlik 68°48'56,332").*

B dan D gacha Boyovut tumani yerlari bilan 5 - 12 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

5 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2383 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'35,116", sharqiy uzoqlik 68°48'10,112").*

6 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib aholi tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 78 metr metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 203 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 345 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'21,545", sharqiy uzoqlik 68°48'00,489").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 519 metr masofada zovur va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'23,028", sharqiy uzoqlik 68°47'38,559").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 403 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'10,025", sharqiy uzoqlik 68°47'37,104").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1139 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'13,153", sharqiy uzoqlik 68°46'48,930").*

10 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 353 metr masofada zovurni kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,743", sharqiy uzoqlik 68°46'47,922").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 362 metr masofada zovur va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Guliston shahar, Boyovut va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,953", sharqiy uzoqlik 68°46'24,825").*


D dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 12 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

12 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 813 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'27,562", sharqiy uzoqlik 68°46'16,895").*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidan Guliston shahar tarkibiga qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegara chizig'i

1 *Qo'shilayotgan yer uchastkasi chegarasining burilish nuqtasi va raqami*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
5-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston shahri maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Guliston shahri, Mirzabod va Guliston tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yoʻl boʻyida joylashgan nuqta boshlangʻich 1 - nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°34'15,578", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°44'30,776").*

A dan B gacha Guliston tumani yerlari bilan 1-13-nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 3303 metr masofani oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'31,275", sharqiy uzunlik 68°45'02,541").*

2 - nuqtadan chegara chizigʻi temir yoʻldan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi va yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 98 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 67 metr, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 319 metr, soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 117 metr masofani oʻtib, keyin yoʻldan zovurni kesib oʻtib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 44 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'35,756", sharqiy uzunlik 68°45'24,282").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2396 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'34,202", sharqiy uzunlik 68°46'30,712").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 974 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'32,245", sharqiy uzunlik 68°47'11,992").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2426 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'13,846", sharqiy uzunlik 68°47'09,501").*

6 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 116 metr masofani oʻtib avtomobil yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1126 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'38,051", sharqiy uzunlik 68°47'24,997").*

7 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3763 metr masofani o‘tib, R-27 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'39,450", sharqiy uzunlik 68°48'01,255").*

8 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 1735 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'34,896", sharqiy uzunlik 68°49'14,702").*

9 – nuqtadan chegara chizig‘i R-27 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 909 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'05,466", sharqiy uzunlik 68°49'13,777").*

10 – nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 345 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib beton ariqqa tutashadi va janubiy yo‘nalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 104 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, Do‘stlik kanali bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'01,007", sharqiy uzunlik 68°49'28,132").*

11 – nuqtadan chegara chizig‘i Do‘stlik kanalining suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 201 metr masofada ko‘prikka tutashadi, keyin ko‘prikning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 55 metr masofani o‘tib, so‘ng sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 59 metr masofani o‘tib, so‘ngra dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 88 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'56,873", sharqiy uzunlik 68°49'22,021").*

12 – nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 755 metr masofani o‘tib, Guliston shahri, Guliston va Boyovut tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, zovur bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'54,758", sharqiy uzunlik 68°49'53,972").*

B dan D gacha Boyovut tumani yerlari bilan 13 - 21 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

13 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib ariqqa o‘tadi va janubiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 419 metr masofada ariqni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr masofani o‘tib, so‘ng dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 387 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'28,741", sharqiy uzunlik 68°49'50,887").*

14 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 2383 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'35,116", sharqiy uzoqlik 68°48'10,112").*

15 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib aholi tomorqa devoriga tutashadi va devor bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 78 metr metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 203 metr masofada zovurni kesib o‘tib, so‘ng janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga

qarshi o‘ng tomoni bilan 345 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'21,545", sharqiy uzoqlik 68°48'00,489").*

16 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 519 metr masofada zovur va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°28'23,028", sharqiy uzoqlik 68°47'38,559").*

17 – nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 403 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'10,025", sharqiy uzoqlik 68°47'37,104").*

18 – nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1139 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'13,153", sharqiy uzoqlik 68°46'48,930").*

19 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 353 metr masofada zovurni kesib o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,743", sharqiy uzoqlik 68°46'47,922").*

20 – nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 182 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy yo‘nalishda 9 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 362 metr masofada zovur va avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, Guliston shahar, Boyovut va Mirzaobod tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, temir yo‘l bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'01,953", sharqiy uzoqlik 68°46'24,825").*

D dan A gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 21 - 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

21 – nuqtadan chegara chizig‘i temir yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 813 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigi bo‘yida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'27,604", sharqiy uzoqlik 68°46'17,030").*

22 – nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib temir yo‘liga tutashadi va temir yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1184 metr masofani o‘tib, temir yo‘li bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'04,772", sharqiy uzoqlik 68°46'05,451").*

23 – nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 85 metr masofada temir yo‘l, avtomobil yo‘li va kanalni kesib o‘tib aholi tomorqa devoriga tutashadi, keyin devor bo‘ylab umumiy g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 302 metr masofani o‘tib qishloq ichki yo‘liga tutashadi, so‘ng yo‘lning sharq tomoni bilan janubiy yo‘nalishda 58 metr, so‘ngra yo‘lning shimol tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 346 metr, keyin yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 175 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan umumiy sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 110 metr, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy yo‘nalishda 251 metr masofada kanalni kesib o‘tib, R-29 avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'15,427", sharqiy uzoqlik 68°45'41,344").*

24 – nuqtadan chegara chizig‘i R-29 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy yo‘nalishda 1417 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,307", sharqiy uzoqlik 68°44'41,402").*

25 – nuqtadan chegara chizigʻi R-29 avtomobil yoʻlini kesib oʻtib “Zomin Metan Gaz” MChJ devoriga tutashadi va devor boʻylab shimoliy yoʻnalishda 119 metr, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 160 metr masofani oʻtib, “Hududgazta’minot” AJ devori boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'22,756", sharqiy uzoqlik 68°44'47,314").*

26 – nuqtadan chegara chizigʻi “Hududgazta’minot” AJ devori boʻylab shimoliy yoʻnalishda 151 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 47 metr masofani oʻtib, soʻng ariqni kesib oʻtadi va devor boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 203 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'33,905", sharqiy uzoqlik 68°44'44,084").*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 158 metr, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 393 metr masofada zovur va qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 11 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'47,091", sharqiy uzoqlik 68°44'37,804").*

28 – nuqtadan chegara chizigʻi ariqning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 423 metr masofani oʻtib qishloq ichki yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 251 metr, soʻng yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 428 metr, soʻngra yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 73 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 400 metr masofada zovurni kesib oʻtib, avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'26,254", sharqiy uzoqlik 68°44'43,802").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 294 metr masofani oʻtib, keyin avtomobil yoʻlini kesib oʻtib ariqqa tutshadi va shimoliy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 429 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtadi, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 111 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurni kesib oʻtadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 413 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'52,642", sharqiy uzoqlik 68°44'56,492").*

30 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 133 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtib aholi tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 422 metr masofada qishloq ichki yoʻlini kesib oʻtib, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 11 metr, soʻngra yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 272 metr masofani oʻtib, keyin tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy yoʻnalishda 60 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda 150 metr masofada zovur va dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, soʻngra toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 90 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib oʻtib, Doʻstlik kanali boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'21,723", sharqiy uzoqlik 68°45'03,585").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3365 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'27,270", sharqiy uzoqlik 68°43'09,574").*

32 – nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 984 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'46,539", sharqiy uzoqlik 68°42'36,656").*


33 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 148 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtadi va zovurga tutashadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 2289 metr, soʻng sharqiy yoʻnalishda 242 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'03,093", sharqiy uzoqlik 68°42'50,836").*

34 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 507 metr, keyin sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2242 metr masofani oʻtib, soʻng dala tuproq yoʻli va kanalni kesib oʻtib aholi tomorqa chegarasiga oʻtadi va tomorqa chegarasi boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 240 metr masofada avtomobil yoʻli va temir yoʻlni kesib oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan boshlangʻich 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'15,578", sharqiy uzoqlik 68°44'30,776").*

Xalq deputatlari Guliston shahar
Kengashining
2025-yil 27-iyundagi
VII-13-74-9-130-K/25 -son qaroriga
6-ilova

Sirdaryo viloyati Guliston shahrining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Shartli belgilar

Guliston shahrining ma'muriy-hududiy chegara chizig'i

1 *Guliston shahri ma'muriy-hududiy chegarasining burilish nuqtasi va raqami*